**Аннотация:** В данной статье анализируются психологические особенности профилактики информационно-психологических угроз среди студентов. Рассматриваются риски воздействия манипулятивной, деструктивной и дезинформационной информации на молодежь в условиях информационного общества. В исследовании раскрывается роль критического мышления, медиа- и информационной грамотности, психологической устойчивости, эмоционального интеллекта и культуры потребления информации как важных факторов обеспечения информационно-психологической безопасности.

Также обосновываются теоретические и практические аспекты формирования психологического и идеологического иммунитета студентов к информационным угрозам. Результаты исследования могут быть использованы для разработки рекомендаций по укреплению информационной безопасности студенческой молодежи и повышению ее устойчивости к негативному информационному воздействию.

**Ключевые слова:** информационно-психологические угрозы, информационная безопасность, медиаграмотность, культура потребления информации, критическое мышление, психологическая устойчивость, эмоциональный интеллект, идеологический иммунитет, студенческая молодежь, дезинформация.

## KIRISH

XXI asrda insoniyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi e'tirof etilmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida axborot almashinuvi tezligi ortib, internet va ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Bunday sharoitda axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengayishi bilan bir qatorda, shaxs ongiga maqsadli ta'sir ko'rsatishga qaratilgan axborot-psixologik tahdidlarning ko'lami ham ortib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy faolligi yuqori, dunyo-



qarashi shakllanish bosqichida bo'lgan talaba-yoshlar turli manipulyativ axborotlar, dezinformatsiya, kiberbulling, virtual zo'ravonlik, ekstremistik va radikal g'oyalar targ'iboti kabi salbiy ta'sirlarga nisbatan sezgir ijtimoiy guruhlardan biri hisoblanadi.

Jahon miqyosida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar axborot-psixologik xavfsizlik masalasi zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganligini ko'rsatmoqda. Raqamli muhitning kengayishi natijasida yoshlarning axborotni qabul qilish, qayta ishlash va baholash mexanizmlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bu esa talabalarda tanqidiy fikrlash, media va axborot savodxonligi, emotsional barqarorlik hamda axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Chunki axborot-psixologik tahdidlar nafaqat shaxsning ruhiy holatiga, balki uning ijtimoiy pozitsiyasi, qadriyatlarini, motivatsiyasi va xulq-atvoriga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda xalqaro tashkilotlar tomonidan yoshlarning media va axborot savodxonligini rivojlantirish, raqamli xavfsizlikni ta'minlash hamda axborot manipulyatsiyalariga qarshi immunitetni shakllantirish bo'yicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish, ularda tanqidiy va analitik tafakkurni shakllantirish, axborot oqimlarini saralash va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik-psixologik vazifa sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda ham yoshlarni turli axborot xurujlar va g'oyaviy tahdidlardan himoya qilish, ularda mustahkam mafkuraviy pozitsiya hamda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda yoshlarning axborot madaniyatini yuksaltirish, media savodxonligini rivojlantirish hamda axborot xavfsizligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa talabalarda axborot-psixologik tahdidlarni oldini olishning samarali psixologik mexanizmlarini ilmiy jihatdan o'rganishni taqozo etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi talabalarda axborot-psixologik tahdidlarni oldini olishning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish, ushbu jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning samarali psixologik mexanizmlarini asoslashdan iborat. Tadqiqot doirasida tanqidiy fikrlash, media savodxonlik, psixologik barqarorlik, emotsional intellekt va axborot iste'moli madaniyatining talabalarning axborot tahdidlariga qarshi immunitetini shakllantirishdagi o'zni yoritiladi. Shu bilan birga, talaba-yoshlarning axborot makonida xavfsiz faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda talabalarda axborot-psixologik tahdidlarning oldini olishning psixologik mexanizmlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Amaliy ahamiyati esa oliy ta'lim muassasalari psixologlari, pedagoglari hamda yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislar faoliyatida foydalanish mumkin bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqilishida namoyon bo'ladi. Natijada talabalarning axborot xavfsizligini ta'minlash, ularda sog'lom axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish va mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik asoslar takomillashtiriladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarda axborot-psixologik tahdidlarni oldini olish muammosi O'zbekiston psixologiya va pedagogika fanida so'nggi yillarda dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Ushbu masalaning nazariy-metodologik asoslari yoshlar psixologiyasi, shaxs rivojlanishi, ijtimoiylashuv, axborot madaniyati, media savodxonlik va mafkuraviy immunitetni shakllantirishga oid tadqiqotlarda o'z aksini topgan.

O'zbek psixologiya fanining yirik namoyandalardan biri bo'lgan E. G'oziyev ilmiy ishlarida shaxsning ijtimoiylashuvi, tafakkur rivojlanishi va mustaqil fikrlash jarayonlari chuqur tahlil qilingan. Olimning ta'kidlashicha, yoshlarning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ularni turli tashqi ta'sirlardan, jumladan, axborot manipulyatsiyalaridan himoya qilishning muhim omili hisoblanadi.

Shaxs psixologiyasi va ijtimoiy psixologiya yo'nalishida samarali ilmiy izlanishlar olib borgan V. Karimova tadqiqotlarida shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy ta'sir va kommunikativ jarayonlarning psixologik mexanizmlari yoritilgan. Olim yoshlarning axborotni qabul qilishida ijtimoiy muhit, referent guruhlar va ommaviy kommunikatsiya vositalarining ta'siri yuqori ekanligini qayd etadi. Bu esa talabalarda axborotni tanlash va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston psixologiya maktabining asoschilaridan biri bo'lgan M. Davletshin ilmiy ishlarida yoshlarning intellektual rivojlanishi, bilish jarayonlari va ta'lim faoliyatining psixologik omillari o'rganilgan. Uning tadqiqotlarida shaxsning bilish faolligi va mustaqil tafakkuri turli salbiy ta'sirlarga qarshi psixologik barqarorlikni ta'minlovchi omillar sifatida talqin etiladi.

Yoshlar tarbiyasi va ijtimoiy psixologiya masalalarini tadqiq qilgan G. Shoumarov ilmiy qarashlarida shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi hamda ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonlari tahlil qilingan. Olimning fikricha, mustahkam e'tiqod va qadriyatlarga ega bo'lgan yoshlar turli g'oyaviy va axborot xurujlariga nisbatan bardoshlilik namoyon etadilar.

Ta'lim psixologiyasi va oila psixologiyasi yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borgan R. Sunnatova yoshlarning ijtimoiy moslashuvi, psixologik salomatligi va ma'naviy kamoloti masalalarini o'rgangan. Uning ilmiy ishlari talabalarda psixologik himoya mexanizmlarini rivojlantirish hamda sog'lom axborot muhitini yaratishning ahamiyatini ochib beradi.

Shuningdek, B. Qodirov, N. Sog'inov, E. Yusupov, Q. Nazarov va boshqa mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida yoshlarning mafkuraviy tarbiyasi, ma'naviy xavfsizligi, axborot madaniyati hamda komil insonni shakllantirish masalalari yoritilgan. Ularning ilmiy qarashlarida axborot makonida yuzaga kelayotgan turli tahdidlarning oldini olishda ma'naviy-axloqiy tarbiya va mustaqil fikrlashning ustuvor ahamiyati ta'kidlanadi.

So'nggi yillarda respublikamizda axborot iste'moli madaniyati, media savodxonlik va axborot xavfsizligi muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Xususan, D. Baratova va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida talabalarning axborot iste'moli xususiyatlari, media makondagi xulq-atvori hamda axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash omillari o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda axborot iste'moli madaniyati, tanqidiy fikrlash va media savodxonlikning yoshlarni axborot tahdidlaridan himoya qilishdagi o'rni asoslab berilgan.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek olimlari tomonidan yoshlarning ma'naviy-psixologik rivojlanishi, mustaqil fikrlashi, axborot madaniyati va mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalalari keng tadqiq etilgan. Biroq talabalarda axborot-psixologik tahdidlarni oldini olishning psixologik xususiyatlari, axborot iste'moli madaniyati, media savodxonlik va psixologik barqarorlikning o'zaro bog'liqligini kompleks tarzda o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar yetarli darajada emas. Shu sababli mazkur mavzuni chuqur tadqiq etish zamonaviy psixologiya fanining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib borgan muhim ijtimoiy hodisaga aylandi. Internet texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va ommaviy kommunikatsiya vositalarining keng rivojlanishi natijasida talaba-yoshlarning axborot bilan muloqot qilish imkoniyatlari sezilarli darajada ortdi. Biroq axborot oqimining keskin ko'payishi bilan bir qatorda turli axborot-psixologik tahdidlar ham yuzaga kelmoqda. Mazkur tahdidlar yoshlarning dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlarini, ruhiy holati va ijtimoiy xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli talabalarda axborot-psixologik tahdidlarning oldini olishning psixologik xususiyatlarini o'rganish bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talabalik davri shaxs rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, mazkur davrda dunyoqarash, qadriyatlar tizimi, mustaqil fikrlash va kasbiy identifikatsiya shakllanadi. Shu bilan birga, yoshlar yangi axborotlarni faol qabul qiluvchi va ulardan keng foydalanadigan ijtimoiy qatlam hisoblanadi. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, talabalarning axborot-psixologik tahdidlarga moyilligi ularning yosh xususiyatlari, emotsional ta'sirchanligi, ijtimoiy faolligi va o'zini namoyon qilish ehtiyojlari bilan izohlanadi. Ayrim hollarda axborotlarni yetarli darajada tahlil qilmasdan qabul qilish, virtual muhitdagi ma'lumotlarga ortiqcha ishonch bildirish yoki ommaviy fikr ta'sirida qaror qabul qilish yoshlarning manipulyativ axborotlarga berilib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Axborot-psixologik tahdidlarning asosiy ko'rinishlari dezinformatsiya, manipulyativ axborotlar, feyk xabarlar, kiberbulling, internet orqali amalga oshiriladigan psixologik bosim, zararli g'oyalar targ'iboti va ma'naviy qadriyatlariga zid bo'lgan kontentlar orqali namoyon bo'ladi. Bunday tahdidlar talabalarning psixologik holatida xavotir, ishonchsizlik, stress, agressivlik yoki ijtimoiy moslashuvning buzilishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan emotsional mazmundagi axborotlar yoshlarning ongiga tez ta'sir ko'rsatib, ularda voqelikni noto'g'ri baholash holatlarini yuzaga keltiradi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Talabalarda axborot-psixologik tahdidlarning oldini olishda eng muhim psixologik omillardan biri tanqidiy fikrlash hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash shaxsga axborotni chuqur tahlil qilish, uning manbasi va maqsadini aniqlash, faktlarni tekshirish hamda mustaqil xulosalar chiqarish imkonini beradi. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlangan talaba har qanday axborotni shubhasiz qabul qilmaydi, balki uni tahliliy yondashuv asosida baholaydi. Bu esa manipulyativ ta'sirlar va yolg'on ma'lumotlarning salbiy oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashda media va axborot savodxonligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Media savodxonlik shaxsning turli axborot manbalarini tahlil qilish, baholash va ulardan oqilona foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Talabalarda media savodxonlik darajasining yuqori bo'lishi axborotlarni saralash, manbalarni tekshirish, yolg'on xabarlarini aniqlash va media manipulyatsiyalarni anglash imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada ular axborot makonida mustaqil va ongli faoliyat yurita oladilar.



Psixologik barqarorlik ham axborot-psixologik tahdidlarning oldini olishda muhim o'rin tutadi. Psixologik barqarorlik shaxsning turli stressli vaziyatlar va salbiy tashqi ta'sirlarga nisbatan chidamliligini ifodalaydi. Emotsional jihatdan barqaror bo'lgan talabalar salbiy axborotlarning ta'siriga kamroq beriladilar hamda murakkab vaziyatlarda oqilona qaror qabul qila oladilar. Shu bois talabalarda stressga chidamlilik, o'zini boshqarish, refleksiya va emotsional intellektni rivojlantirish axborot-psixologik himoyaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Talabalarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish ham axborot tahdidlariga qarshi kurashishda samarali vosita hisoblanadi. Axborot iste'moli madaniyati shaxsning axborotdan maqsadli, tanqidiy va mas'uliyatli foydalanish darajasini belgilaydi. Sog'lom axborot iste'moli madaniyatiga ega bo'lgan talaba o'z vaqtini samarali boshqaradi, ishonchli manbalardan foydalanadi va zararli kontentlardan cheklanishga harakat qiladi. Bu esa axborot makonida yuzaga keladigan salbiy ta'sirlarning oldini olish imkonini beradi.

Talabalarda axborot-psixologik tahdidlarga qarshi psixologik immunitetni shakllantirish murakkab va uzluksiz jarayon hisoblanadi. Mazkur immunitetning asosini tanqidiy fikrlash, media savodxonlik, psixologik barqarorlik, emotsional intellekt, ma'naviy qadriyatlar va axborot iste'moli madaniyati tashkil etadi. Ushbu sifatlar uyg'un rivojlangan taqdirda talaba turli axborot xurujlar, manipulyativ ta'sirlar va destruktiv g'oyalarga nisbatan mustahkam psixologik pozitsiyani shakllantira oladi.

Shunday qilib, axborot-psixologik tahdidlarning oldini olish talabalarining shaxsiy rivojlanishi, axborot bilan ishlash kompetensiyalari va psixologik tayyorgarligi bilan chambarchas bog'liqdir. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining media savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish hamda psixologik barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshirish axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv yoshlarning zamonaviy axborot makonida xavfsiz, faol va ongli ishtirok etishiga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, axborotlashuv jarayonlarining jadallashuvi va raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi talaba-yoshlarning axborot makonidagi faolligini sezilarli darajada oshirgan bo'lsa-da, ularning turli axborot-psixologik tahdidlar ta'siriga duch kelish ehtimolini ham kuchaytirmoqda. Dezinformatiya, manipulyativ axborotlar, kiberbulling, virtual bosim va turli g'oyaviy ta'sirlar talabalarining psixologik holati, dunyoqarashi, qadriyatlari hamda ijtimoiy xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, talabalarining axborot-psixologik tahdidlarga beriluvchanligi ularning tanqidiy fikrlash darajasi, media va axborot savodxonligi, psixologik barqarorligi hamda axborot iste'moli madaniyatining shakllanganlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur sifatlar yetarli rivojlanmagan hollarda yoshlarning axborotni tanqidiy baholash imkoniyatlari cheklanib, manipulyativ va destruktiv ta'sirlarga moyilligi ortadi. Tadqiqot davomida talabalarda axborot-psixologik tahdidlarning oldini olishning muhim psixologik omillari sifatida tanqidiy fikrlash, emotsional intellekt, psixologik barqarorlik, reflektiv tafakkur, media savodxonlik va sog'lom axborot iste'moli madaniyati alohida ahamiyat kasb etishi asoslandi. Aynan ushbu omillar yoshlarning axborotlarni ongli ravishda qabul qilishi, tahlil qilishi va baholashiga, shuningdek, turli axborot xurujlarga nisbatan mustahkam psixologik pozitsiyani shakllantirishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, talabalarda axborot-psixologik immunitetni shakllantirish faqatgina bilim berish bilan cheklanmasdan, balki ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash, axborot bilan ishlash kompetensiyalarini takomillashtirish va psixologik himoya mexanizmlarini rivojlantirishni ham talab qilishi aniqlandi. Bu jarayonda oliy ta'lim muassasalari, oila, ommaviy axborot vositalari va jamiyatning boshqa ijtimoiy institutlari o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishi muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, talabalarda axborot-psixologik tahdidlarni oldini olishning samaradorligi kompleks psixologik-pedagogik yondashuvni talab etadi. Oliy ta'lim muassasalarida media savodxonlikni rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish, axborot iste'moli madaniyatini yuksaltirish hamda psixologik barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan maqsadli dasturlarni joriy etish yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlash, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish va zamonaviy axborot makonida xavfsiz faoliyat yuritish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot natijalari talabalarining axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy va amaliy ishlarni takomillashtirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida talabalarda axborot-psixologik tahdidlarning oldini olish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Oliy ta'lim muassasalarida media va axborot savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv kurslari va treninglarni joriy etish maqsadga muvofiq. Mazkur mashg'ulotlarda talabalarni axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va tekshirish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

2. Talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Xususan, munozaralar, debatlar, keys-stadilar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va loyiha faoliyatlari yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.
3. Ta'lim muassasalari psixologik xizmatlari faoliyatida axborot-psixologik xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur. Psixologlar tomonidan talabalarning axborot tahdidlariga moyillik darajasini aniqlash, profilaktik suhbatlar va psixologik treninglar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.
4. Talabalarda psixologik barqarorlik va emotsional intellektni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish lozim. Stressni boshqarish, hissiyotlarni nazorat qilish, konfliktlarni konstruktiv hal etish va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish axborot tahdidlarining salbiy ta'sirini kamaytiradi.
5. Axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish bo'yicha tizimli targ'ibot ishlarini kuchaytirish tavsiya etiladi. Talabalarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish, vaqtni samarali taqsimlash hamda zararli kontentlardan himoyalani ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.
6. O'quv jarayoniga raqamli xavfsizlik va kiberxavfsizlik elementlarini integratsiya qilish zarur. Talabalar shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, internetdagi firibgarlik va manipulyativ texnologiyalarni aniqlash bo'yicha amaliy bilimlarga ega bo'lishlari kerak.
7. Professor-o'qituvchilarning axborot-psixologik xavfsizlik bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini oshirish maqsadga muvofiq. Chunki pedagoglar yoshlarni axborot tahdidlaridan himoya qilish va ularda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning asosiy subyektlaridan biri hisoblanadi.
8. Ota-onalar va ta'lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish tavsiya etiladi. Ota-onalarning media savodxonligi va axborot xavfsizligi bo'yicha bilimlarini oshirish yoshlarning axborot muhitidagi faoliyatini samarali nazorat qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, talabalarda axborot-psixologik tahdidlarning oldini olish bo'yicha tavsiya etilgan chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlash, media savodxonligini rivojlantirish, psixologik barqarorligini mustahkamlash hamda sog'lom axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada talaba-yoshlarning zamonaviy axborot makonida xavfsiz va samarali faoliyat yuritish kompetensiyalari yanada rivojlanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. - 540 b.
2. G'oziyev E.G'. Yosh davrlari psixologiyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2014. - 320 b.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. - Toshkent: Universitet, 2009. - 192 b.
4. Karimova V.M. Psixologiya. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. - 205 b.
5. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'quvchisining psixologiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 1999. - 312 b.
6. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh.A., Mavlonov M.M., To'ychiyeva S.M. Yosh va pedagogik psixologiya. - Toshkent: TDPU, 2009. - 274 b.
7. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi. - Toshkent: Sharq, 2008 - 296 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish va media madaniyatini rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar. - Toshkent, 2022. - 98 b.
9. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi. Yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirishning nazariy asoslari. - Toshkent: Ma'naviyat, 2021. - 176 b.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Talaba-yoshlar ma'naviy kamolotini rivojlantirish konsepsiyasi. - Toshkent, 2023. - 84 b.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-avgustdagi PQ-296-son qarori. Yoshlarni axborot makonidagi salbiy ta'sirlardan himoya qilish va media savodxonlikni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(6)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.